

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**Qadimgi turkiy adabiyot poetikasi
fanining**

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	5200000 – Gumanitar fanlar va san'at
Ta'lif sohasi:	5220000 – Gumanitar fanlar
Ta'lif yo'nalishi:	5220100 – Filologiya (O'zbek tili)

Fanning o'quv dasturi Guliston davlat universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

**Muzaffar Mamatqulov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent**

Taqrizchi:

**Qobil Ko'baev,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent**

Fanning o'quv dasturi Guliston davlat universitetining kengashida ko'rib
chiqilgan va tavsiya qilingan.

« ____ »____ 2018 yil № ____ -sonli majlis bayoni.

Kengash kotibi:

A.Uzoqov

Kirish

Mustaqillik yillarida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» (1997 yil 27 avgust), Davlat Ta’lim standarti (2004, 2006) va boshqa me’yoriy hujjatlar talablari asosida mamlakat universitetlarida fundamental tadqiqotlar bilan shug’ullanish, bu ishga iqtidorli yoshlarni jalb qilish maqsadida o’z reja va dasturlarini zamonaviy asosda qayta tayyorlanmoqda. Guliston davlat universiteti tizimida 5220100 – Filologiya (o’zbek filologiyasi) ta’lim yo’nalishi uchun “Qadimgi turkiy adabiyot poetikasi” kursi tanlov fanlari doirasida o’qitila boshladi. Ta’lim jarayonidagi ana shu ilmiy-adabiy ehtiyoj hisobga olingan holda mazkur o’quv dasturi tayyorlandi.

Dastur ixtisoslik fanining talablaridan kelib chiqqan holda uch yo’nalishdagi qadimgi turkiy yozma adabiyot namunalarini o’z ichiga olib, uning I bosqichida qadimgi turkiy moniylik adabiyoti namunalarining shakllanishi va taraqqiyoti masalalarini o’rganish tavsiya etiladi. II bosqich turkiy shomonlik adabiyoti masalalariga bag’ishlangan bo’lib, unda buddaviylik she’rlarining manbalari, “Oltun yorug” dostoni o’rganiladi. III bo’limda esa qadimgi turkiy buddaviylik adabiyotiga xos xususiyatlar adabiyotshunoslik ilmi talablari asosida alohida tahlilga tortiladi. Mazkur tanlov fani talabalarning “O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fanidan olgan bilimlari asosiga qurilgan bo’lib, uni takomillashtirish va chuqurlashtirish maqsadida universitetda olib borilayotgan ilmiy-pedagogik tajriba natijalariga suyanildi.

Fanni o’qitishning maqsadi va vazifalari

“Qadimgi turkiy adabiyot poetikasi” fanini o’qitishdan maqsad adabiyotimizning dastlabki davrlariga aloqador tasavvurlarimizni kengaytirishdan iborat. Qadimgi turkiy adabiyot namunalarini o’rganish orqali adabiyotimizning genezisi va taraqqiyoti masalalarini har tomonlama izchil tahlil qilishga erishilishi mumkin. Islomdan oldingi turkiy adabiyot namunalarini badiiylik talablari asosida tahlil qilish tamoyillari va estetik talablar doirasida o’rganishga e’tibor qaratiladi. Ana shu jihatdan mazkur fanning vazifasi quyidagilarda ko’rinadi:

- islomdan oldingi turkiy adabiyot namunalarini keng qamrovda tadqiqot ob’ekti sifatida jalb etish;
- qadimgi turkiy adabiyoi namunalarining vujudga kelgan davri, o’rni va tarqalish geografiyasini o’rganish;
- qadimgi turkiy moniylik she’rlari tahlil qilishga kirishish;

- “Xuastuanift” dostonini turkiy mifologiya talablari asosida tahlilga tortish;
- O’rxun yodgorliklarini qadimgi turkiy adabiyot namunasi sifatida tekshirish;
- Enasoy obidalarini janrlar talabi nuqtai nazaridan baholash;
- turkiy buddaviylik adabiyoti namunalarini ma’noviy qamrovi va mohiyatini anglash;
- “Oltun yorug”” dostonini tahlil qilish;
- qadimgi turkiy adabiyot namunalarini janrlar aspektida o’rganish;
- islomdan oldingi turkiy adabiyot namunalari baddiiyatini tahlil qilish;
- qadimgi turkiy adabiyotning o’ziga xos xususiyatlari aniqlashdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Mazkur fan bo'yicha talabalar dastlab islomdan oldingi turkiy adabiyot namunalariga doir tavsiya etilgan birlamchi manbalar: qadimgi turkiy shomonlik, moniylik va buddaviylik adabiyoti namunalari bilan yaqindan tanishishlari lozim. Qadimgi turkiy adabiyotning shakllanishi va taraqqiyoti omillaridan xabardor bo'lishlari masalaning mohiyatiga etishga yordam beradi. Islomdan oldingi davr adabiyotining bir necha yo'naliishlarda bir davrdagi takomili turkiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish va qiyosiy o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bulardan tashqari bizgacha etib kelgan badiiy matnlarni g'oyaviy-badiiy, shakliy jihatdan tahlilga tortish turkiy yozma adabiyotning genezisi juda qadim zamonlarda ekanligidan dalolat beradi.

Qadimgi turkiy adabiyot namunalarini o'rganish adabiyotimizning manzarasi qay darajada keng ekanligidan tashqari ularning janrlar tizimi haqida ham tasavvurlarni kengaytira oladi. Shuningdek, ayrim nazariy qarashlarning shakllanishi haqida ham dastlabki ma'lumotlar bera olishi talabalarning badiiy ijod va adabiyotshunoslikning takomili haqidagi kuzatishlari uchun imkoniyatlar yarata oladi.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Qadimgi turkiy adabiyot poetikasi tanlov fani hisoblangani uchun O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi fanining mantiqiy davomi hisoblanib, uning mazmunini

to’ldiruvchi va talqin, tahlillar doirasini kengaytiruvchi fandir. Fanning muhim nazariy muammolari Adabiyot nazariyasi muammolarini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga ushbu fan adabiyotshunoslik tizimidagi fanlardan tashqari falsafa, tarix, ruhshunoslik, dinshunoslik, axloq va estetika fanlarida o’rganiladigan ayrim muammolar bilan o’zaro bog’langan.

Fanning ishlab chiqarishdagi o’rni

Fan masalalarining ijtimoiy hayotdagi o’rni “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va “Davlat ta’lim standartlari”da nazarda tutilgan, yoshlarni ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda ushbu fanning xizmati katta. Bu bilan o’tmishe merosini o’rganishga rag’bat, milliy qadriyatlarga hurmat va mumtoz madaniyatimizni o’zlashtirishda hamda ma’naviy-axloqiy mezonlar ruhida talaba yoshlarni ulg’aytirishda munosib o’rni bor.

Fanni o’qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Mazkur fan doirasida rejalshtirilgan mavzularni o’tishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish ahamiyatlidir. Ayrim ma’ruza mashg’ulotlarida “muaammoli dars”, interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mavzularni o’zlashtirishda elektron lug’at, ovozli yozuv va videoko’rsatuvlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Seminar mashg’ulotlari va mustaqil ta’lim jarayonida INTERNET saytlaridan (www.literature.uz) foydalanish ham nazarda tutiladi.

Ma’ruzalar mazmuni

KIRISH

«Qadimgi turkiy adabiyot poetikasi» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Qadimgi turkiy adabiyotning shakllanish zaminlari va taraqqiyoti. Qadimgi turkiy adabiyotning o’rganilish tarixi. Qadimgi turkiy adabiyotni davrlashtirish masalalari. O’zbekistonda turkiy adabiyot tarixinining o’rganilishi.

Moniylik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot

Moniylik diniy oqimining paydo bo’lishi va tarqalishi. Turkiylar va moniylik diniy oqimi. Moniylik oqimi va turkiy yozma adabiyot. «Xuastuanift»ning tuzilishi. «Xuastuanift»ning g’oyaviy xususiyatlari. Moniylik mifologiyasi. Moniylik va zardushtiylik. Qadimgi turkiy moniylik she’rlari badiiyati. Moniylik oqimi ta’siridagi turkiy adabiyotning paydo bo’lish omillari. Moniylik she’rlarining g’oyaviy xususiyatlari. Moniylik she’rlarining janr xususiyatlari. Moniylik she’rlari badiiyati.

Fol kitoblari

Iraq bitigi va qadimgi turkiy mifologiya. Iraq bitigi – didaktik asar sifatida. Fol kitobining shakllanishida moniylik oqimining roli. Turkiy yozma adabiyot taraqqiyoti va Fol kitobi.

Shomonlik oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot

O'rxun-Enasoy yodgorliklari - shomonlik adabiyotining mahsuli sifatida. O'rxun-Enasoy obidalarining kashf qilinishi va o'rganilish tarixi. O'rxun-Enasoy yodgorliklari janr xususiyatlari. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining til xususiyatlari. Yodgorliklarda Vatan, millat va shaxs erki masalalari. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining adabiy qimmati.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarning janr xususiyatlari

Qadimgi turkiy yozma adabiyotning janr xususiyatlari. Tarixiy-qahramonlik dostonlarining shakllanishi. Qadimgi turkiy adabiyotda marsiya janri. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik shakli va takomili

Budda oqimidagi qadimgi turkiy adabiyot

Buddaviylik dinining shakllanishi va taraqqiyoti. Turkiylar va budda diniy oqimi. Buddaviylik va turkiy yozma adabiyot. Buddaviylik oqimi ta'siridagi turkiy adabiyotning shakllanish omillari. Buddaviylik she'rlarining g'oyaviy va janr xususiyatlari. Buddaviylik she'rlari badiiyati

Seminar mashg'ulotlari mazmuni

1. Qadimgi mif va afsonalar
2. «Xuastuanift» asari
3. Moniylik mifologiyasi
4. Moniylik she'riyati
5. Moniylik she'rlari badiiyati
6. O'rxun yodgorliklari

7. Enasoy yodgorliklari
8. Buddaviylik ta'siridagi turkiy adabiyot
9. Fol kitoblari
10. Kul tigin bitigtoshi
11. To'nyuquq bitigtoshi
12. Bilga xoqon bitigtoshi
13. Qadimgi turkiy adabiyotning janrlar tizimi
14. «Oltin yoruq» dostoni
15. Turkiy buddaviylik she'riyati

Asosiy adabiyotlar

1. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, Sano standart, 2017.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari (Tuzuvchilar: N.Rahmonov, H.Boltaboev). 1-jild. Toshkent, Fan, 2003.
3. Qadimiy hikmatlar (To'plovchi: N.Rahmonov). Toshkent, Adabiyot va san'at, 1987.
4. Rahmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. Toshkent, Xalq merosi, 2002.
5. Malov S.E. Pamyatniki drevneturkskoy pismennosti. M.L. Nauka, 1951.
6. Arat R.R. Eski turk siiri. –Ankara: 1991

Qo'shimcha adabiyotlar

1. I.A Karimov. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch". T., Ma'naviyat, 2008.
2. Rahmonov N. Turk xoqonligi. Toshkent, Xalq merosi, 1993.
3. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, Yangi asr avlodи, 2005.
4. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. Toshkent, Cho'lpon, 1995.
5. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyotda to'rtlik va marsiya. Toshkent, Yangi asr avlodи, 2006.
6. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. Toshkent, Adabiyot va san'at, 1972.
7. Mamatqulov M. Qadimgi turkiy adabiyot poetikasi. Guliston, 2008

8. www.ziyo-net.uz
9. www.literature.uz
10. www.kutubxona.uz